

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**2011 — 2015 YILLARDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SIL KASALLIGI BILAN
KASALLANISHNI KAMAYTIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR
TO‘G‘RISIDA**



LexUZ sharhi

Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-fevraldagi 87-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z ahamiyatini yo‘qotgan ayrim qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni)” gi qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan.

Sil kasalligi bilan kasallanishni kamaytirish va uning oldini olish dasturi amalga oshirilishi keyingi besh yilda kasallanish ko‘rsatkichini 38 foizga, aholining sil kasalligi tufayli o‘limini — 45 foizga kamaytirishni ta‘minladi.

Shu bilan birga, sil kasalligiga qarshi muassasalar faoliyatida profilaktika darajasini oshirish va ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati bilan bog‘liq hal etilmagan masalalar hanuz saqlanib qolmoqda. Sil kasalligiga qarshi muassasalarning aksariyati mukammal ta‘mirlashni, rekonstruksiya qilishni va zamonaviy tibbiyot anjomlari bilan jihozlashni talab qiladi, yarmidan ko‘pi kam quvvatli va moslashtirilmagan binolarga joylashtirilgan. Ko‘pchilik muassasalar fiziatr vrachlar, ayniqsa tor ixtisosli mutaxassislik vrachlari bilan yetarlicha ta‘minlanmagan.

Sil kasalligi profilaktikasi va uni davolash ishlarini yanada takomillashtirish, sil kasalligiga qarshi xizmatning moddiy-texnika bazasini va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, respublikaning sil kasalligiga qarshi muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan:

2011 — 2015-yillarda O‘zbekiston Respublikasida sil kasalligiga qarshi kurashish dasturi (keyingi o‘rinlarda Dastur deb ataladi) 1-ilovaga* muvofiq;

**1-ilova berilmaydi.*

sil kasalligiga qarshi muassasalar tarmog‘ini maqbullashtirish hisobga olingan holda shakllantirilgan 2011 — 2015-yillarda sil kasalligiga qarshi muassasalarni yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta‘mirlashning asosiy parametrlari 2 — 4-ilovalarga* muvofiq;

**2 — 4-ilovalar berilmaydi.*

2012 — 2015-yillarda sil kasalligiga qarshi muassasalarni zamonaviy tibbiyot anjomlari bilan jihozlash (to‘liq jihozlash)ning asosiy parametrlari 5-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

**5-ilova berilmaydi.*

2. 2011 — 2015-yillarda O‘zbekiston Respublikasida sil kasalligiga qarshi kurashish dasturini amalga oshirish bo‘yicha 6-ilovaga* muvofiq tarkibda Maxsus komissiya tuzilsin.

**6-ilova berilmaydi.*

Maxsus komissiya (A. Aripov)ga Dasturni amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy ishlarining butun kompleksi bajarilishi yuzasidan javobgarlik yuklansin. Komissiya yarim yillik va kalendar yil yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan Dastur amalga oshirilishi natijalarini Vazirlar Mahkamasi Prezidiumi majlislarida ko‘rib chiqish uchun kiritilsin.

Maxsus komissiyaga O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining taqdimnomasi bo‘yicha har yili tasdiqlanadigan sil kasalligiga qarshi muassasalarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta‘mirlashning aniq yo‘naltirilgan ro‘yxatiga umumiy tasdiqlangan parametrlar doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

3. Belgilansinki:

sil kasalligiga qarshi muassasalarni yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash markazlashtirilgan investitsiyalar va sog'liqni saqlashga har yili nazarda tutiladigan mablag'lar doirasida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, shuningdek xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy institutlar va tashkilotlarning imtiyozli kreditlari (qarzlari) va grantlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi;

zamonaviy tibbiyot anjomlari sotib olish va ularni sil kasalligiga qarshi muassasalarda o'rnatish amalga oshiriladigan qurilish va ta'mirlash ishlariga muvofiq 2011 — 2015-yillarda O'zbekiston Respublikasida sil kasalligiga qarshi kurashish dasturini bajarish bo'yicha Maxsus komissiya tomonidan tasdiqlanadigan har yilgi jihozlash (to'liq jihozlash)ning aniq yo'naltirilgan ro'yxatlariga muvofiq xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy institutlar va tashkilotlarning imtiyozli kreditlari (qarzlari) va grantlari hisobiga amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi Sog'liqni saqlash vazirligining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining asoslangan hisob-kitoblari bo'yicha har yili O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti loyihasini va Investitsiya dasturini shakllantirishda belgilangan tartibda jalb etiladigan xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy institutlar va tashkilotlarning imtiyozli kreditlari (qarzlari) va grantlarini hamda boshqa budjetdan tashqari mablag'larni hisobga olgan holda sil kasalligiga qarshi muassasalarni yangidan qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlashga kapital qo'yilmalar va budjetdan ajratiladigan mablag'larning zarur limitlarini nazarda tutsinlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi hamda "O'ztibloyiha" mas'uliyati cheklangan jamiyat bilan birgalikda aholiga ko'rsatiladigan davolash-profilaktika yordamining sifati va undan foydalanish bo'yicha talablarga muvofiqlikni ta'minlashni nazarda tutgan holda sil kasalligiga qarshi muassasalarning yangi quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta'mirlanadigan obyektlarga qo'yiladigan sanitariya me'yorlari va qoidalari bo'yicha mavjud normativ hujjatlarni qayta ko'rib chiqsin.

5. Buyurtmachi funksiyalari:

respublika sil kasalligiga qarshi muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, shuningdek sil kasalligiga qarshi muassasalarni zamonaviy tibbiyot anjomlari bilan jihozlash (to'liq jihozlash) bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga;

sil kasalligiga qarshi viloyat va tuman (shahar) muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi yagona buyurtmachi xizmatlariga yuklansin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash davrida sil kasalligiga qarshi muassasalarning bemorlari kontingentini boshqa muassasalarga vaqtincha o'tkazish jadvalini va joylashtirilishini ishlab chiqsinlar.

7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda Dasturni amalga oshirish uchun xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy institutlar va tashkilotlarning imtiyozli kreditlari (qarzlari) va grantlarini hamda boshqa budjetdan tashqari mablag'larni jalb etish ishlarini doimiy asosda olib borsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligining 2011-yil 1-apreldan boshlab sil kasalligiga qarshi muassasalar xodimlarining sog'liq uchun xavfli va og'ir ish sharoitlari munosabati bilan tarif stavkalariga 50 foiz miqdorida qo'shimcha belgilash to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

Belgilansinki, sil kasalligiga qarshi muassasalar xodimlarining tarif stavkalariga qo'shimcha miqdori oshirilishi bilan bog'liq budjetning qo'shimcha xarajatlari sog'liqni saqlash muassasalari bo'yicha ma'muriy va yordamchi xodimlar sonini maqbullashtirish hisobiga qoplanadi.

9. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari A.N. Aripov va B.A. Xo‘jayev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2011-yil 5-mart,
62-son

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 10-11-son, 99-modda)